

**МАХМУДХО‘ЈА БЕҲБУДИYНИНГ «МУХТАСАР ИСЛОМ ТАРИХИ»
ДАРSLIGI XUSUSIDA**

Raxmatxonov Ayubxon Jahongir o‘g‘li
*O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Tarix(islom tarixi va manbashunosligi)
yo ‘nalishi 2-kurs talabasi
ayubxonrahmatxonov@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning boshlang‘ich maktablar uchun mo‘ljallab yozilgan «Muxtasar islam tarixi»(«Islomning qisqacha tarixi») nomli darsligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu darslik haligacha hozirgi o‘zbek yozuviga tabdil qilinmagan bo‘lib, darslikda islam tarixiga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *usuli jadid, «Muxtasar islam tarixi», tarix, payg‘ambar, Arabiston.*

Abstract: *This article gives data concerning the textbook «Mukhtasar islam tarikhi»(«Brief history of Islam») written by Mahmudhoja Behbudi for primary schools. This textbook has not been translated into the current Uzbek script and the textbook contains basic information on the history of Islam.*

Key words: *usuli jadid, «Mukhtasar islam tarikhi», history, prophet, Arabia.*

KIRISH

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida keng yoyilgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri – Vatan farzandlarini ma‘rifatli qilish edi. Shu yo‘lda jadidlar «yangi usul» maktablari oolib, bu maktablarda bolalarga qadriyatlar ruhida yo‘g‘rilgan zamonaviy fanlar bilan bir qatorda an‘anaviy fanlardan ham dars bergenlar. Shunday an‘anaviy fanlardan biri «Islom tarixi» fani edi. Jadidlar mакtab tizimida ham katta o‘zgarishlar qilib, o‘zbek xalqining asrlar davomida e’tiqod qilib kelayotgan muqaddas Islom dinini sof holida aholiga yetkazish, uning hech qachon ilmga to‘sinqinlik qilmasligi, balki, aksincha targ‘ib qilishi, umuminsoniy qadriyatlar bo‘lgan tinchlik va ma‘rifatga hammadan ham ko‘ra ko‘proq e’tibor berishini yetkazish uchun «yangi usul» maktablari o‘quv dasturiga Islomga oid fanlarni ham kiritdilar. Ammo o‘sha davrdagi mustabid tuzum senzurasi sabab bu fanlar dasturi qisqa tuzilib, boshlang‘ich ma‘lumotlar berish bilan cheklangan va shu fan uchun «Muxtasar islam tarixi», «Tarixi islam», «Tarixi anbiyo» nomlari bilan darsliklar yozilgan. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyy «Muxtasar islam tarixi», Abdurauf Fitrat «Muxtasar islam tarixi», Abdulla Avloniy «Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islam», Shokirjon Rahimiyy, Munavvarqori Abdurashidxonov «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» nomli darsliklarni yozishgan. Ushbu darsliklar boshlang‘ich maktablarning kichik sinflari uchun mo‘ljallangan. Bulardan Abdulla Avloniyning «Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islam»[1] va Abdurauf Fitratning «Muxtasar islam tarixi»[2] darsliklari hozirgi o‘zbek yozuviga tabdil qilinib, nashr etilgan.

ASOSIY QISM

Mahmudxo‘ja Behbudiyy birinchilardan bo‘lib boshlang‘ich maktablar uchun «Muxtasar islam tarixi» darsligini yozgan va yangi usul maktablarida «Muxtasar islam

tarixi» fani joriy qilingani haqida shunday degan: «Usuli jadid ismli maktablarda «Tarixi islom», «Tarixi anbiyo» isminda risolalar ta’lim berilur-ki bolalarni dini mubini Islom va anbiyoi a’zamning yaxshi bilishlariga bois bo‘lur. Ammo ma’al-taassuf ba’zi o‘ylamay so‘ylaguvchilar tarix va jug‘rofiya o‘qumoqni bid’at va gunoh deb bechora avomni ozduradurlar. Bizni Turkistonda ba’zi eng muhtaram muborak kishilar tarixdan bexabardurlar»[3;44]. Behbudiy maktablarda millat farzandlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun tarixni bilishlari kerakligini ta’kidlagan. Behbudiyning o‘zi islom dini bilimdoni, yirik ulamo – qozi, muftiy lavozimlarida faoliyat yuritganidan kelib chiqib, aytishimiz mumkin-ki, islomning vatanparvarlik, ilmga targ‘ib qilishi to‘g‘risidagi g‘oyalarini chuqur bilgan. Shuning uchun ham «Oyina» jurnalida bosilgan «Tarix va jug‘rofiya» maqolasida o‘tgan payg‘ambarlar, din va ummatlarning ahvoldidan, payg‘ambar Muhammad alayhissalom, sahobalarning islom ummati uchun qilgan mehnatlaridan xabardor bo‘lish uchun ham tarixni o‘rganish zarurligini aytgan: «Xulosa, dinu dunyodan boxabar bo‘lmoqni xohlaydurg‘on har kim uchun tarix o‘qumoq kerak, chunki har nimarsa va ishning asli va nasli tarixdan bilinur»[4].

Mahmudxo‘ja Behbudiy «Muxtasar islom tarixi» darsligi 1909-yilda yozilgan. Asar Samarqand shahridagi «Novoye delo» tipo-litografiyasida nashr qilingan[5]. Nashr yili ko‘rsatilmagan. Muqovadagi yozuvlarga ko‘ra, darslik 2 juzda nashr qilingan. 1-juz «zuhuri islomdan xulafoi roshidin zamonig‘acha», 2-juz «zuhuri umaviyadan zamonи hozirga qadar». Lekin darslik 2-juzini topishni iloji bo‘lmadi. Muqovada «muharrir va noshir: Mahmudxo‘ja ibn Behbudxo‘ja Samaqandiy» deb ko‘rsatilgan. Darslik kirish qismida muallif kichik muqaddima yozgan. Muqaddimada jumladan shunday deydi: «Tarixi dini mubiyn – Islom ta’limidan bizni Turkiston maktablarini mahrumligi afsus-ki, ko‘rulurdi...». Bundan ko‘rinadi-ki, asar yozilgan paytda Behbudiy Turkiston maktablarida Islom tarixidan darslar o‘qitilmayotganini kuzatgan. Ammo shunga qaramay bir qancha «g‘ayratlik muallimlar tomonidan» bu fandan ham darslar yo‘lga qo‘yilganini eslab o‘tishni unutmaydi. Ayni paytda, Qozon va Istanbul shaharlarida nashr qilingan shu soha darsliklar ko‘proq adabiy janrda bo‘lgani uchun Turkiston maktablari uchun qulay hisoblamaydi. «Shul sababli Vatan maktablarinda ta’lim berilmog‘i uchun shu «Muxtasar tarixi islom»ni birinchi juzini matbuotda... tahrir va nashr etdim» - deya muallif darslik yozilish sababini bayon etadi. Darslikning biz tabdil qilgan ushbu birinchi juzi muallif ta’kidlaganidek, «zuhuri islomdan», ya’ni islomning Arabistonda paydo bo‘lishi, Arabiston aholisi, ularning Islomdan avvalgi ahvollari, Hijoz – Makka yerlari haqida ma’lumot berish bilan boshlanadi. Darslik faktlar asosida, eng muhim turli noto‘g‘ri rivoyatlar aralashib ketmagan holda, turkiy tilda, tushunarli, sodda tarzda yozilgan. Asardagi ma’lumotlar 45 sarlavha ostida berilgan bo‘lib, e’tiborli jihatni dastlab 3-4 matndan keyin, asar o‘rtasidan boshlab deyarli har bir matndan so‘ng tamrin – mashqlar berilgan bo‘lib, muallif u orqali o‘quvchini olgan bilimini mustahkamlashni maqsad qilgan. Darslik mazmunidan ham uning boshlang‘ich maktabning kichik sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangani yaqqol sezilib turadi. Jumladan, asarda tushunish qiyin bo‘lgan matnlar, so‘zlar deyarli uchramaydi. Darslikda islom tarixidagi muhim voqeahodisalar qisqa, aniq va tushunarli tarzda berilishi bilan birga, ba’zi voqealar haqida umuman ma’lumot berilmagan bo‘lsa, ba’zilariga qisqa ishora berib ketilgan xolos. Shunga qaramay darslik hozirgi kunda ham dolzarb.

Asarda birinchi matn «Dini islomni zuhur etgan joyi» sarlavhasi ostida berilgan: «Diyni Islom Arabistonda zohir bo‘ldi(paydo bo‘ldi). Arabiston Osiyo qit’asini g‘arbiy-janubiy tarafinda bir katta yarim jaziyra(yarimorol)dir: g‘arbi Bahri ahmar(Qizil dengiz), shimoli Suriya, Shom va Iroq cho‘llari, sharqi Basra ko‘rfazi yoinki Ajam dengizi, janubi Bahri muhiti Hindiydan(Hind okeanidan) paydo bo‘lgan ummon – Arabiston dengizlarig‘a muttasildir. Eski jug‘rofiya ulamolari, Arabistonni g‘arbiy tarafini Toshlik Arabiston, janubini Mas’ud Arabistoni va boshqa taraflarini Cho‘l Arabistoni ataydilar»[5]. Asardagi ushbu jumlalardan Mahmudxo‘ja Behbudiyning geografiya fanidan ham chuqur bilimga ega jadid bo‘lgani anglashiladi. Muallif payg‘ambar Muhammad alayhissalom hayotlari haqidagi ma'lumotlarni yozar ekan, siyrat bo‘yicha mashhur asarlardan foydalangani yaqqol seziladi. Islom an'analaridan yetarlicha bilimga ega bo‘lgan, ko‘p yillar muftiy bo‘lib faoliyat yuritgan muallif payg‘ambar Muhammad alayhissalomga nisbatan yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatib, turli sharaflı ismlar bilan tilgan oladi. Masalan, «Faxr ul-mursaliyn»(«Payg‘ambarlar faxri»), «Tojsar muslimin»(«Musulmonlar boshidagi toj»), «Faxri koinot»(«Butun olam faxri»), «Ashrafi bani Odam(a.s.)»(«Odam(a.s.) bolalarining sharaflisi»), «hazrati Risolatpanoh», «Xotam ul-anbiyo»(«Payg‘ambarlarning so‘nggisi») kabi. Asarda Mahmudxo‘ja Behbudiyy muqaddas Qur‘oni karim oyatlaridan ham foydalangan bo‘lib, ma'lumot berilayotgan voqeа munosabati bilan nozil bo‘lgan yoki bevosita shu voqeaga aloqador Baqara, Oli Imron, Alaq, Hijr, Moida, Fath, Tavba suralaridan oyatlar keltirgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Muxtasar islom tarixi» darsligi islom tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyy va boshqa jadid namoyandalarining Islom tarixiga oid darslik, maqola va asarlari hozirgi kunda yoshlarimiz ongini zaharlayotgan turli yot oqimlarga qarshi immunitetni shakllantirishda katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдулла Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи Ислом(нашрга тайёрловчи, изоҳ. ва сўнгсўз муал. Р. Баракаев). –Т.:«ТИУ» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.
2. Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи(сўзбоши муал. ва таржимон Ҳ.Болтабоев). –Т.: «Янги аср авлоди», 2004.
3. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. –Т.: «Академия»,1999.
4. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тарих ва жўғрофия// «Ойна», 27-сон,26-апрел,1914-й.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Мухтасар тарихи ислом. Типо-литография «Новое дело». Самарканд.